

TEMURIYLAR DAVRI RENESSANSI: ILM-FAN, MADANIYAT VA SAN'AT RIVOJI

Normatova Dildora Esonaliyevna

FarDU dotsenti, Falsafa fanlari nomzodi <https://orcid.org/0000-0002-1210-9738>

Muxammadova Sevaraxon Nazirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 3-bosqich talabasi <https://orcid.org/0009-0003-6850-6569>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda Amir Temur va temuriylar davrida ikkinchi renessansning vujudga kelish asoslari, uning rivojlanishiga yaratilgan barcha shart-sharoitlar , ilm-fan, madaniyat va san'at rivoji haqida so'z yuritilgan. Maqolada Amir Temurning olimu fuzalolarga , ilm ahllariga munosabati, ularning davlat boshqaruvidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, buyuk sohibqironning davlat boshqaruvidagi tajribasi va uning bugungi kundagi amaliy ahamiyati ko'ssatib berilgan.

Kalit So'zlar: Renessans, ilm-fan, "Temur tuzuklari", davlat arbobi, diplomat, siyosiy vaziyat, madaniyat va san'at, musulmon fiqhi qoidalari

KIRISH

O'n beshinchi asrda sohibqiron Amir Temur asos slogan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham sultanat yurtimizda ikkinchi uyg'onish , ya'ni ikkinchi renessansni boshlab berdi.

Buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz Oqsaroy peshtoqiga "Adolat – davlatning asosi va hukmdorlar shioridir", degan hikmatli so'zlarni yozdirgani beziz emas, albatta. Ushbu ulug'vor g'oya inson qadr-qimmatini oliy darajaga ko'tarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylandi deydi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

"Temur" hodisasi yaqin 700 yildan beri tarix charxpalagida aylanadi. Garchi Yer joyida turgan bo'lsada, tuzumlar- tutumlar necha bor o'zgardi va shaxsga munosabat ham ming bora turlandi. Gapning sirasini aytganda, tarix g'aladonida sohibqiron Amir Temurdek turli nuqtalardan baho berilgan zot kam bo'lgan bo'lsa kerak.

Bu holning qator sabablari bor. Avvalo, turlicha qarashlarning bildirilishi qonuniy hol, taraqqiyotning tabiat shuni talab qiladi. Ya'ni rivojlanish qarama-qarshi qutblarning o'zaro kurashi – ikkiga bo'linib olib, bir-biriga qarshi "jang"i oqibatida yuzaga kelar ekan, bir masalaga hammaning bir xil qarashi mumkin emas. Vatandoshimiz Amir Temurga munosabatda esa inson tabiatiga xos juda ko'p omillar mujassamlashgan.

Avvalo, shaxs ziddiyatining boisi - faoliyat ziddiyatlarga to'la makonda kechganidan. O'shanda ham vatan zulm iskanjasida edi: qariyb bir yarim asrlik istilo hamma narsaning odatdagi o'zanini buzib yuborgan va qaror topgan azaliy qadriyatlar bir qancha qoliplar tazyiqi ichida yashardi, millat o'zligini, qiyofasini yo'qotgandi.

Ikkinci omil esa bevosita sohibqironning maslagi bilan bog'liq. "Temur tuzuklari"da bunday qayd etiladi: "Dilimning mashriqidan ko'tarilgan birinchi tuzugim har yerda va har qachon islom diniga va Muhammad (s.a.v.)ning shariatlariga rivoj berish bo'ldi".

Uchinchi bir sabab shundan iboratki, buyuk bobomiz ot surgan, o‘z qalamraviga olgan hududlar masofa jihatidangina emas, tarixi, ma’naviyati, aholisi, udumlar – umuman, butun borlig‘i bilan bir qolipga sig‘masdi va bunday bepoyonlikda hammani bir dunyoqarashda, yagona fikrlash tarzida ushlab turish ham imkondan tashqarida edi.

Temurbekka ko‘plab hukmdorlarda bo‘lganidek, sultanat mulk sifatida otadan meros bo‘lib o‘tmadi. Balki Yaratganning inoyati tufayli o‘zining jiddu-jahdi, g‘ayrati bilan hammasiga erishdi. U bir tug‘ ostida shunchalik katta hududni qovushtira oldiki (tarixchilar Amir Temur imperiyasi o‘sha paytdagi 27 davlatni birlashtirganini qayd etadilar.

Bugungi holatga razm solinsa, bu davlatlar soni 40 ga yaqinlashib qoladi), o‘sha yillari ko‘hna va hamisha navqiron Samarcand deyarli yer yuzining bosh kentiga aylandi. Bu ulug‘ sultanat insoniyat tarixidagi eng buyuk imperiyalardan biri bo‘lib qoldi.

Bugungi kunda demokratik huquqiy davlat qurayotgan xalqimiz tarixida huquqiy davlat haqidagi tasavvur va qarashlarning yuzaga kelishi hamda rivojlanishi, uning yuridik manbalari, dunyoviy huquq va qonunchilik masalalarini hamma bilishni istaydi, albatta. Ana sgu nuqtai nazardan qaraganda, Temur tuzuklarini tarixiy-huquqiy tadbiq etish alohida dolzarblik kasb etadi. Zero o‘tmish merosimiz, uning boy davlatchilki va huquqiy asoslari, xususan, Amir Temur davrida davlat va huquq borasida qo’llanilgan adolatli tamoyillar bugungi kunda mustaqilligimizga ham xizmat qilib, shaxsning yuksak siyosi, axloqiy va huquqiy madaniyatini shakllantirishda ko‘maklashmoqda.

Temurning ijtimoiy-siyosiy tamoyillar tizizmini yanada batafsilroq bayon qilsak, quyidagi manzara namoyon bo‘ladi: 1. Amir Temur iqtisodiyotni har qanday sultanat poydevori deb bilgan. “ Davlatu sultanat- deb ta’kidlaydi, Temur o‘zining “Temur tuzuklarida” -uch narsa – mulk, xazina, lashkar bilan tirikdir”. Bu bilan Temur davlatning yashashi va ijtimoiy rivoji uchun iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lish zarurligini ta’kidlaydi. 2. Amir Temuring qarashlariga ko‘ra, har bir mamlakat turli iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqib, barcha mintaqalar xususida to’la ma’lumotlarga ega bo‘lishiva ularning iqtisodiy xususiyatlarini to’la hisobga olishi lozim. 3. Amir Temur asosiy ishlab chiqarish vositasibo’lgan yer egalariga katta e’tibor qildi va har bir viloyatni idora qilishda davlat, vaqf, xususiy yer egaligi tartiblarini saqlab qoldi va bunga yer maydonining miqdori, egalik huquqini davlat manfaatini ko‘zda tutib, o‘zgartirishga harakat qildi. 4. Temur mehnatning yaratuvchanlik faoliyatini nazarda tutib, uni ijtimoiy qadriyat deb tushundi. 5. Amir Temur siyosiy masalalar tizimida tashqi aloqalarga juda yaxshi ahamiyat qaratgan. Shu bois Amir Temurning o‘zi mohir diplomat bo‘lgan. 6. Amir Temur iqtisodiy tamoyillar tizimida moliya masalalariga katta ahamiyat qaratgan. Chunki moliya Temur nazarida davlatning iqtisodiy tayanchi edi.

Temurning siyosiy-huquqiy qarashlariuning axloqiy qarashlari bilan asoslanadi va diniy axloq ustiga quriladi. Shuning uchun ham Temur nazarida har qanday siyosatning muvaffaqiyati podshoning o‘z fuqarolariga bo‘lgan rahmdilligi, saxovatidadir. Qur’onda “ Taxlaku bi-axloq Alloh” deyilganidek, deb yozadi Temur, agar podshoh biror gunohkorning gunohini kechirsa , bu bilan fuqarosiga rahm qilgan bo‘ladi. Mening barcha ishlarimda ana

shunday podshohlar menga ibrat bo'ldi". Temur o'z siyosatida ham adolat, haqqoniylilik, odillikka tayanib ish tutdi. Chunki o'z siyosatida haq yo'lini tanlagan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Amir Temur va Temuriylar davrida iqtisodiyot rivojlangani, ilm-fan, san'at-madaniyat gullab-yashnaganini bugungi sinchilar ham tasdiqlaydilar va bu davr chinakamiga insoniyat tamaddunidagi ikkinchi Renessans deb baholangan. O'shanda san'at va adabiyotda, xususan, me'morchilikda yetti yuz yildan keyin ham yetib bo'lmaydigan yutuqlar qo'lga kiritilgandi. Natija shunchalik betimsolki, sirini ochmagan, ya'ni hozirgi taraqqiyot bosqichida kashf qilina olmayotgan mo'jizalar hamon mavjud.

Bu silsila bir shaxs faoliyatidan yuksalib, jahonshumul ko'lam kasb etdi. Sohibqiron Amir Temurdan to'ragan avlodlarning sha'n-shavkatini ko'z oldingizga keltiring! Yer yuzining istalgan nuqtasida, istalgan millatiga shunday tole' nasib etsa, umidli dunyoda yashayotgan har qanday inson zoti o'z qavmidan, ya'ni insonligidan faxrlanadi.

Temuriylar san'ati forslarning an'anaviy „Kitobat san'ati“ tushunchasini o'zlashtirdilar va takomillashtirdilar. Temuriylar davrida yangicha san'at asarlari sifatida badiiy asarlarni qo'lyozma hamda tasvirlar uyg'unlashuvi kuzatildi.. Ushbu illyustratsiyalar boy ranglari va nafis dizayni bilan ajralib turardi. Ushbu qo'lyozmalarda tasvirlangan miniatyura rasmlari sifati tufayli Metropolian san'at muzeyi arxeologi va san'atshunosi Suzan Yalman ta'kidlaganidek, „Hirot maktabi“ qo'lyozma rasmlariga ko'pincha fors rassomligining mantiqiy davomchisi sifatida qaraladi. Temuriy kumush bilan ishlov berilgan po'lat ko'p holatda yuqori sifatlari deya baholanmoqda. Rassomlik qo'lyozmalar bilan cheklanib qolmadi, chunki temuriylarning ko'pgina rassomlari murakkabdevoriy tasvirlarni ham yaratdilar. Ushbu devoriy tasvirlarning aksariyatida fors va xitoy badiiy an'analaridan kelib chiqqan landshaftlar tasvirlangan. Ushbu rasmlarning mavzusi boshqa madaniyatlardan olingan bo'lsa-da, temuriylarning devoriy tasvirlari oxir-oqibat o'ziga xos uslubda takomillashtirildi. Mo'g'ullar badiiy an'analarini butunlay bekor qilinmaganligini XV asr temuriylar san'atida tasvirlangan inson siyosining yuqori uslubda tasvirlanganligi ana shu madaniyatdan kelib chiqqan.

Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davrida san'at yanada yuksaldi. U o'z hukmronlik davrida ilm-fan xayrixohi va homysi sifatida tanilgan edi. Sulton Husayn ko'plab mashhur maktablar barpo etdi. U Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan „keyingi davr Movarounnahr hukmdorlarining eng muhim va asosiysi“ hamda uning go'zal saroyi va badiiy muhitga nisbatan saxiy homiyligi hayratga sazovor ekanligi e'tirof etilgan.

Sulton Ulug'bek hukmronlik davri imperianing ilmiy cho'qqisi sifatida tavsiflanadi. Uning hukmronligi davrida al-Koshiy har bir daraja uchun o'ta aniqlikdagi va har bir daqqa uchun farqlarni o'z ichiga olgan to'rtta eng kichik raqamlar uchun sinuslar jadvalini ishlab chiqdi. Shuningdek, u osmon sifatidagi koordinatlar tizimlari orasidagi o'zgarishga oid, masalan, ekliptik coordinator tizimidan ekvatorial koordinatalar tizimiga o'tish kabi jadvallarni ishlab chiqardi. Yer, Oy, Quyosh va Yulduzlar kabi samoviy jismlarning masofalari va o'lchamlarini aniqlashda avvalgilar duch kelgan qiyinchiliklarni hal qilishni Sullam al-Sama muallifligida ishlab chiqilgan.

Ulug‘bek Samarqandda institutga asos solgan va u tez orada taniqli universitetga aylangan. Uning saltanati poytaxtidagi ushbu akademiyaga butun Yaqin Sharq va atrofdagi talabalar to‘planishgan. Binobarin, Ulug‘bek O‘rta Sharqning ko‘plab buyuk matematiklari va olimlarini, shu jumladan Ali Qushchini bir joyga to‘play oldi. Ali Qushchi astronomik fizikani tabiiy falsafadan mustaqil ravishda va Astronomiyaning falsafaga taxminiy bog‘liqligi to‘g‘risida risolasida Yerning aylanishi uchun empirik dalillarni keltirgan. Ali Qushchining eng muhim astronomik asari — Astronomiyaning falsafaga bog‘liqligi. Aristotelizmning astronomiyaga aralashishiga qarshi chiqqan islom ilohiyotchilarini ta’siri ostida Ali Qushchi aristotel fizikasini rad etdi va tabiiy falsafani islom astronomiyasidan butunlay ajratib, astronomiyaning sof empirik va matematik ilmga aylanishiga imkon berdi. Bu unga Aristoteliya statsionar Yer tushunchasiga alternativalarini o‘rganish imkonini berdi, chunki u harakatlanuvchi Yer haqidagi g‘oyani o‘rganib chiqdi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki Amir Temur va uning avlodlari davrida vujudga kelgan ikkinchi Renessans dunyo olimlarini hayratga solganligi bilan ham mashhurdir. Huddiki birinchi Rennesans kabi ikkinchi Renessans ham butun yer yuzini to‘lqinlantirdi desak xato bo‘lmaydi albatta. Biz bundan faxrlanamiz, Birinchi Prezidentimiz ham shunday dedi: “Sohibqiron Amir Temurning shaxsi uning avlodlari bo‘lmish faqat bizning emas, balki mintaqamizdagi barcha xalqlarning, butun ma’rifiy insoniyatning boyligidir”. Demak, bu Renessans faqat bizda emas butun dunyoda katta o‘zgarishlar bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Sohibqiron o‘zining yuritgan oqilona siyosati tufayli o‘zidan o‘chmas iz qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

- 1.Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri.-Toshkent :“O‘zbekiston “ nashriyoti,2022.-B.39.
- 2.Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 2-kitob
- 3.K.Sultonov. Amir Temur siyosiy-huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy qarashlarining milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyati. Toshkent.”Ma’naviyat” 2019
- 4.Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san’at. Toshkent. G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1996.